

UDK 616.33/34-022

**OIV INFEKTSIYASI BILAN OG'RIGAN, SURUNKALI GASTRODUODENAL
KASALLIKLARGA EGA AHOLI ORASIDA INFEKSION XAVF
OMILLARINING TARQALISHI, NASLIY MOYILLIK XUSUSIYATLARI VA
TANA VAZNI O'ZGARISHLARI**

Makhsumova D.K., Sheraliyev A. B., Saliev D. Q.

Andijon davlat tibbiyot instituti

Kalit so'zlar: surunkali gastroduodenal kasalliklar, xavf omillari, odam immunodefitsiti virusi, populyatsiya, orttirilgan immunodefitsit sindromi.

Dolzarbligi.

Maxsus adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda aholining alohida toifalaridan biri — OIV bilan infeksiyalangan yoki OIV sababli OITS bilan kasallangan populyatsiya hisoblanadi [JSST, 2005]. Prognozlarga ko'ra, yaqin o'n yilliklarda ushbu aholi guruhi barcha turdagi, jumladan epidemiologik tadqiqotlarning asosiy obyekti bo'lib qoladi [3,4,5].

Ma'lumki, surunkali gastroduodenal kasalliklarning (SGDK) shakllanishi va kechishining og'irlashishiga mustaqil xavf omillari sifatida infeksiyon omillar, irsiy omil hamda tana vaznining kamayishi yoki ortishi xizmat qiladi [1,2,6,7,8,9].

Tadqiqot maqsadi — OIV bilan infeksiyalangan, surunkali gastroduodenal kasalliklarga ega shaxslarda epidemiologik omillarni aniqlash va "epidemiologik marshrutlar"ni baholash.

Materiallar

va

tadqiqot

usullari.

Tadqiqot uchun Andijon shahrida yashovchi OIV bilan infeksiyalangan populyatsiya tanlandi. Viloyat statistika qo'mitasi va maxsus hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu populyatsiya shahar aholisi uchun representativ hisoblanadi. Tekshiruvlar skrining markazida o'tkazilib, epidemiologik, klinik va OIV-infeksiyani aniqlashga qaratilgan maxsus diagnostik usullarni o'z ichiga oldi.

Har bir bemor Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (1990) hamda RF Sog'liqni saqlash vazirligi Gastroenterologiya ilmiy-tadqiqot instituti (1995) so'rovnomalari asosida ishlab chiqilgan maxsus anketa orqali baholandi. Savollar zararli odatlar, turmush tarzi, jismoniy faollik, zararli odatlardan voz kechish imkoniyati, davolanishga rioya qilish, ovqatlanish, tana massasi indeksi (TVI), "issiq nuqtalar"ga xizmat safarlari, anamnezda SGDK mavjudligi, chaynash apparati holati, og'riq xususiyatlari (joylashuvi, ovqat bilan bog'liqligi, davriyligi va mavsumiyligi), disfagiya, dispeptik holatlar, tana vaznining yo'qotilishi, ichki qon ketish belgilari va oldingi tekshiruv natijalarini qamrab oldi.

Natijalar va muhokama.

OIV bilan infeksiyalangan aholida *Helicobacter pylori* infeksiyasi, nasliy moyillik va tana vazni o'zgarishlarining tarqalishi



1-jadval

Populyatsiya guruhlari	Tekshirilg anlar soni	HPI (1) abs	%	NO (2) abs	%	TVP (3) abs	%	TVI (4) abs	%	t-mezon bo'yicha ishonchlilik
OIV bilan infeksiyalangan ayollar (20–69 yosh)	263	243	92,4	33	12,5	191	72,6	9	3,4	1–2, 3–4
OIV bilan infeksiyalangan erkaklar (20–69 yosh)	244	235	96,3	37	15,7	230	94,3 *	12	4,9	1–2, 1–4, 3–4
Umumiy OIV populyatsiyasi (20–69 yosh)	507	478	94,3	70	13,8	421	83,0	21	4,1	1–2, 1–4, 3–2, 3–4

Natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 20–69 yoshdagi OIV bilan infeksiyalangan shaxslarda *Helicobacter pylori* infeksiyasi (HPI) — 94,3% va tana vaznining pastligi (TVP) — 83,6% holatda eng ko'p uchraydi. Nasliy omil (NO) 13,8% va tana massasi indeksi oshishi (TVI) esa 4,1% hollarda aniqlangan.

Ayollar va erkaklar orasida xavf omillari tarqalishi quyidagicha bo'ldi: HPI — mos ravishda 92,4% va 96,3% ($R > 0,05$), NO — 12,5% va 15,7% ($R > 0,05$), TVP — 72,6% va 94,3% ($R < 0,05$), TMI — 3,4% va 4,9% ($R > 0,05$). TVP TVI ga nisbatan 20,7 baravar ko'proq uchrashi aniqlandi ($R < 0,001$). *Helicobacter pylori* infeksiyasi NO va TVI ga nisbatan mos ravishda 7 va 23 baravar yuqori qayd etildi ($R < 0,001$).

Erkaklarda barcha omillar ayollarga nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichda qayd etildi: HPI — 3,9%, NO — 3,2%, TVP — 21,7% ($R < 0,05$), TVI — 1,5%.

Yosh guruhlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, HPI 20–29 yoshda — 95,4%, 30–39 yoshda — 96,2%, 40–49 yoshda — 89,7% holatda uchragan. 50–59 yoshda — 62,5% va 60–69 yoshda — 50,1% ($R < 0,05$) bo'lgan. Umuman olganda, 20–69 yoshda HPI 94,3% hollarda aniqlangan.

Nasliy moyillik 20–69 yoshda 13,8% ni tashkil etdi, biroq yosh ortishi bilan 60–69 yoshda 50,0% gacha ($R < 0,001$) oshdi. TVP barcha yosh guruhlarida yuqori bo'lib, 50 yoshdan keyin 100% ga yetdi. TVI esa juda kam uchradi — umumiy populyatsiyada 4,1%, 50 yoshdan yuqori guruhlarida esa umuman aniqlanmadi.

Xulosalar.

1. OIV bilan infeksiyalangan populyatsiyada surunkali gastroduodenal kasalliklar shakllanishining o'ziga xos epidemiologik mexanizmlari mavjud bo'lib, ular *Helicobacter pylori* infeksiyasi, nasliy moyillik, tana vaznining pastligi va TVI bilan bog'liq.

2. Ushbu qonuniyatlar OIV-infeksiyasi fonida gastroduodenal kasalliklarni davolash va profilaktika dasturlarida hisobga olinishi zarur.



Date: 29th December-2025

ADABIYOTLAR:

1. Briskin B.S., Karpov V.I., Etkova P.V. O'n ikki barmoq ichakning qonayotgan yaralarida *Helicobacter pylori* ning roli // Rossiya gastroenterologiya, gepatologiya va koloproktologiya jurnali. 1996. №4. 20–22-betlar.
2. Isakov V.A., Domaradskiy I.V. Xelikobakterioz. — Moskva: Medpraktika, 2005. 15–21-betlar.
3. Kazennova E.V. va boshqalar. Janubiy Uralda narkomanlar orasida OIV infeksiyasi o'choqlarining molekulyar-epidemiologik tavsifi // Mikrobiologiya, epidemiologiya va immunobiologiya jurnali. Moskva, №2, 34–37-betlar.

